Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotlarda soliq adolati va budget adolati masalalari ko'p hollarda bir-biridan alohida o'rganiladi. Soliqqa tortish nazariyasida asosiy e'tibor soliq yuki, optimal soliq stavkalari, gorizont va vertikal tenglik masalalariga qaratilsa, davlat moliyasiga oid tadqiqotlarda budget xarajatlarning samaradorligi, ijtimoiy transfertlar va fiskal barqarorlik ustuvor yo'nalish sifatida qaratiladi. Biroq soliqlar orqali resurslarni markazlashtirish va budget orqali ularni qayta taqsimlash yagona iqtisodiy jarayonning o'zaro bog'liq bosqichlari hisoblanadi. Shu sababli soliq va budget adolatini yagona integral tizim sifatida tadqiq qilish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adolat, davlatning iqtisodiyotdagi roli va soliq-budget munosabatlarining adolatligi masalalari iqtisodiy tafakkur taraqqiyotining turli bosqichlarida tadqiq etilgan. Mazkur muammoning nazariy asoslari klassik siyosiy iqtisod, farovonlik iqtisodiyoti, institutsionalizm, ijtimoiy tanlov nazariyasi, davlat moliyasi nazariyasi va zamonaviy tengsizlik konsepsiyalarida turlicha talqin qilingan.

A.Smit iqtisodiy tizimda davlat va bozor munosabatlarini tadqiq etar ekan, soliqqa tortishning tenglik, aniqlik, qulaylik va tejamkorlik tamoyillarini asoslab bergan [1]. Uning yondashuvida soliq yuki fuqarolarning davlat himoyasi ostida oladigan daromadlari va iqtisodiy imkoniyatlariga muvofiq taqsimlanishi lozimligi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv keyinchalik soliq adolatining "to'lash qobiliyati" tamoyili rivojlanishiga nazariy asos bo'lib xizmat qildi.



A.Pigu esa xususiy va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi tafovutlar, tashqi samaralar va davlatning tuzatuvchi iqtisodiy funksiyalarini tadqiq etdi [2]. Uning farovonlik iqtisodiyoti konsepsiyasi bozor mexanizmi ijtimoiy jihatdan maqbul natijalarni har doim ham ta'minlay olmasligi va muayyan holatlarda davlatning soliq, subsidiya hamda budjet vositalari orqali aralashuvi zarurligini nazariy jihatdan asosladi.

J.M.Keyns iqtisodiyotda yalpi talab, bandlik va investitsiyalarni tartibga solishda davlatning faol rolini asoslab, budjet-soliq siyosatini makroiqtisodiy barqarorlashtirishning muhim vositasi sifatida talqin qildi [3]. Keynscha yondashuv doirasida davlat xarajatlari va soliqlar nafaqat fiskal resurslarni shakllantirish, balki bandlikni ta'minlash, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va iqtisodiy sikllarni yumshatish vositasi sifatida qaraladi.

A.Marshall bozor muvozanati, iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi hamda iqtisodiy farovonlik masalalarini tahlil qilib, iqtisodiy samaradorlik va jamiyat farovonligi o'rtasidagi bog'liqlikni asosladi [4].

Iqtisodiy adolat nazariyasining zamonaviy rivojlanishida J.Roulzning "adolat — halollik sifatida" konsepsiyasi muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar, birinchidan, barcha uchun adolatli imkoniyatlar sharoitida mavjud bo'lishi, ikkinchidan esa jamiyatning eng kam ta'minlangan a'zolari manfaatlariga xizmat qilishi lozim [5]. Roulzning "farq tamoyili" soliq-budjet siyosatining taqsimot natijalariga ta'sirini baholashda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi.

A.Sen adolatni faqat daromadlar va moddiy resurslar taqsimoti bilan cheklab bo'lmavligini ta'kidlab, insonning real imkoniyatlari va erkinliklarini kengaytirishni taraqqiyotning asosiy mezon sifatida ilgari surgan [6]. Ushbu yondashuv budjet xarajatlarning adolatligini baholashda ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat xarajatlarning ahamiyatini kengroq talqin qilish imkonini beradi.

Davlat moliyasi nazariyasining rivojlanishida R.Masgreyvning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim davlat moliyasining uchta asosiy funksiyasini — resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlashtirish funksiyalarini ajratib ko'rsatgan [7]. Mazkur nazariy yondashuv soliq va budjet munosabatlarini yagona iqtisodiy tizim sifatida tadqiq etish uchun muhim metodologik asos hisoblanadi. Chunki davlat soliqlar orqali resurslarni markazlashtiradi, budjet xarajatlari va transfertlar orqali esa ularni ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlar asosida qayta taqsimlaydi.

J.Stiglis bozor muvaffaqiyatsizliklari, axborot asimmetriyasi va institutsional nomutanosibliklarni tahlil qilib, haddan tashqari iqtisodiy tengsizlik nafaqat ijtimoiy muammo, balki iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligini asoslaydi [8]. Uning fikricha, iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi, ijtimoiy mobillikning pastligi va siyosiy-iqtisodiy institutlarning muayyan manfaat guruhlariga ta'sirida shakllanishi iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini ham cheklaydi.

T.Pikettning uzoq muddatli tarixiy ma'lumotlarga asoslangan tadqiqotlari daromad va boylik konsentratsiyasining iqtisodiy adolat uchun muhim muammo ekanligini ko'rsatdi [9]. Uning tadqiqotlarida kapitaldan olinadigan daromadlar, mulkiy tengsizlik va progressiv soliqqa tortish o'rtasidagi bog'liqlik keng tahlil qilingan. A.Atkinson tengsizlikni qisqartirishda soliq siyosati, ijtimoiy transfertlar, mehnat bozori institutlari va davlat xizmatlarini o'zaro muvofiqlashtirish zarurligini ta'kidlaydi [10].

Zamonaviy fiskal tadqiqotlarda soliq tizimining adolatligi gorizontaal va vertikal adolat, soliq yukining taqsimlanishi, progressivlik, soliq imtiyozlarining ta'siri va soliq ma'muriyatchiligidan iborat sifatida baholanadi. Shu bilan birga, fiskal siyosatning taqsimot samarasi faqat soliqlarning progressivligi bilan emas, balki ijtimoiy transfertlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa jamoat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan ham belgilanadi [11].

Zamonaviy xalqaro tadqiqotlarda soliq tizimlari daromad va boylik tengsizligini yumshatishi ham, ayrim konstruktiv xususiyatlar ta'sirida uni kuchaytirishi ham mumkinligi ko'rsatilgan. Shu sababli soliq adolatini baholashda faqat nominal stavkalarni emas, balki soliq bazasi, imtiyozlar, samarali soliq stavkalari, soliqqa rioya qilish darajasi va turli daromad guruhlariga zimmasiga tushadigan haqiqiy soliq yukini hisobga olish zarur [12].

O'zbekistonda iqtisodiy adolat masalalari aholi daromadlari, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya, bandlik, inson kapitalini rivojlantirish, soliq siyosatini takomillashtirish va budjet resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq holda o'rganib kelinmoqda. Mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar soliq tizimini soddalashtirish, budjet jarayonining ochiqligini oshirish, ijtimoiy himoyaning manzilligini kuchaytirish va aholining budjet resurslarini taqsimlashdagi ishtirokini kengaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy adolat, soliq adolati, budjet xarajatlari samaradorligi, daromadlarni qayta taqsimlash va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha keng nazariy va empirik tadqiqotlar amalga oshirilgan [13–16].

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning mavjud ilmiy ishlardan farqli jihati soliq va budjet adolatini bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yagona qayta taqsimlash jarayonining o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari sifatida tadqiq etishdan iborat. Tadqiqotda soliq yukining adolatligi, soliq shaffofligi, budjet xarajatlarning samaradorligi, ijtimoiy himoyaning manzilligi, hududiy budjet adolati, inklyuzivlik va avlodlararo fiskal barqarorlikni birlashtiruvchi integral baholash modeli taklif etiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy adolatni ta'minlashda davlatning roli hamda soliq-budjet mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganishga asoslanadi. Tadqiqotda tizimli tahlil, mantiqiy abstraksiya, ilmiy umumlashtirish, qiyosiy taqqoslash, institutsional tahlil, statistik tahlil, indekslash va integral baholash usullaridan foydalanildi.

Tizimli tahlil usuli soliq va budjet munosabatlarini alohida iqtisodiy jarayonlar sifatida emas, balki milliy daromadni qayta taqsimlashning yagona tizimi sifatida o'rganishda qo'llanildi. Mazkur usul asosida soliqlar orqali resurslarni markazlashtirish, budjet orqali qayta taqsimlash, ijtimoiy transfertlar va jamoat xizmatlarini moliyalashtirish o'rtasidagi funksional bog'liqlik tahlil qilindi.

Mantiqiy abstraksiya va ilmiy umumlashtirish usullari iqtisodiy adolat, soliq adolati va budjet adolati kategoriyalarining nazariy mazmunini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda soliq-budjet adolatining asosiy qoidalari va mezonlarini tizimlashtirishda qo'llanildi.

Qiyosiy taqqoslash usuli soliqqa tortishning klassik tamoyillari, zamonaviy fiskal adolat yondashuvlari va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq-budjet islohotlarining asosiy yo'nalishlarini o'zaro taqqoslashda foydalanildi. Qiyosiy tahlil soliq yuki, qayta taqsimlash mexanizmlari, budjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligi, ijtimoiy himoya manzilliligi va fiskal shaffoflik kabi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Institutsional tahlil usuli soliq-budjet adolatini ta'minlashda davlat institutlari, soliq ma'muriyatchiligi, budjet jarayoni, ijtimoiy himoya mexanizmlari, jamoatchilik ishtiroki va hisobdorlik institutlarining rolini baholashda qo'llanildi. Bunda iqtisodiy adolat faqat taqsimot natijasi emas, balki resurslarni shakllantirish va taqsimlash tartib-taomillarining shaffofligi va xolisligi bilan ham belgilanishi nazarda tutildi.

Statistik tahlil usuli O'zbekistonda davlat budjeti daromadlari va xarajatlari, asosiy soliq tushumlari, ijtimoiy soha xarajatlari, ijtimoiy himoya, ta'lim va sog'liqni saqlashni moliyalashtirish dinamikasini tahlil qilishda qo'llaniladi. Statistik ma'lumotlar dinamik, tarkibiy va nisbiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinib, soliq-budjet siyosatining iqtisodiy adolatga ta'siri baholanadi.

Tadqiqotning asosiy uslubiy yangiligi sifatida soliq va budjet munosabatlaridagi adolat darajasini kompleks baholashga mo'ljallangan Soliq-budjet adolati integral indeksi (SBAI)ning konseptual modeli taklif etiladi. Indeks quyidagi yettita tarkibiy subindeksdan tashkil topadi:

SA – soliq yukining adolatiligi;

SSh – soliq tizimining shaffofligi va barqarorligi;

BS – budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligi;

IH – ijtimoiy himoya va budjet transfertlarining manzilliligi;

HBA – hududiy budjet adolati;

GI – gender va ijtimoiy inklyuzivlik;

AFB – avlodlararo fiskal barqarorlik.

Integral indeksning umumiy ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$SBAI = w_1SA + w_2SSh + w_3BS + w_4IH + w_5HBA + w_6GI + w_7AFB$$

bu yerda $w_1...w_7$ — tegishli subindekslarning vazn koeffitsiyentlari bo'lib, ularning yig'indisi 1 ga teng bo'lishi shart.

Taklif etilayotgan metodologik yondashuv soliq-byudjet siyosatini faqat davlat daromadlari va xarajatlari muvozanati nuqtayi nazaridan emas, balki uning aholi farovonligi, iqtisodiy imkoniyatlar tengligi, ijtimoiy himoya, hududiy mutanosiblik, inklyuzivlik va kelajak avlodlar manfaatlariga ta'siri nuqtayi nazaridan kompleks baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy adolatni ta'minlashda davlatning soliq-byudjet siyosati hal qiluvchi institutsional mexanizmlardan biri hisoblanadi. Soliqlar orqali davlat iqtisodiyotda yaratilgan daromadning muayyan qismini markazlashtiradi, byudjet xarajatlari orqali esa ushbu resurslarni ijtimoiy ehtiyojlar, inson kapitalini rivojlantirish, infratuzilma, hududiy taraqqiyot va ijtimoiy himoya maqsadlariga qayta taqsimlaydi. Shu sababli soliq va byudjet adolatini alohida emas, balki yagona qayta taqsimlash tizimi sifatida baholash maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval. Soliq adolatining asosiy mezonlari¹

Mezon	Mazmuni	Iqtisodiy adolatga ta'siri
To'lash qobiliyati	Soliq yuki subyektning real iqtisodiy imkoniyatiga mos bo'lishi	Kam daromadli qatlamlarga ortiqcha yuk tushishining oldini oladi
Gorizontal adolat	Bir xil iqtisodiy holatdagi subyektlarga bir xil soliq munosabati	Soliq tizimida tenglik va ishonchni kuchaytiradi
Vertikal adolat	Yuqori imkoniyatga ega subyektlar ko'proq fiskal mas'uliyatni zimmasiga olishi	Daromadlar nomutanosibligini yumshatadi
Shaffoflik	Soliq qoidalari tushunarli va ochiq bo'lishi	Soliq intizomi va ixtiyoriy to'lov madaniyatini oshiradi
Barqarorlik	Soliq qoidalari tez-tez va kutilmagan tarzda o'zgarishsizligi	Investitsiya va tadbirkorlik qarorlarini rag'batlantiradi
Rag'batlantiruvchi xususiyat	Soliq siyosati mehnat, investitsiya va tadbirkorlikni cheklamasligi	Iqtisodiy faollik va rasmiy sektorni kengaytiradi
Imtiyozlar adolati	Imtiyozlar aniq natija va ijtimoiy samaraga asoslanishi	Raqobat buzilishi va asossiz ustunliklarni cheklaydi

O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq tizimini soddalashtirish, soliq turlarini qisqartirish, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va soliq to'lovchilar uchun hisobot yuklamasini kamaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayon soliq adolatining muhim sharti bo'lgan shaffoflik, prognozlilik va ma'muriy soddalikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq soliq tizimining adolatligini faqat stavkalarning pasayishi bilan baholash yetarli emas. Asosiy masala soliq yukining aholi qatlamlari, tarmoqlar, hududlar va biznes subyektlari o'rtasida qanday taqsimlanayotgani bilan belgilanadi.

Budjet adolati esa davlat xarajatlarning jamiyat ehtiyojlariga qay darajada mosligi, ijtimoiy samarasi, manzilliligi va shaffofligi bilan bog'liq. Agar budjet mablag'lari aholining farovonligi, inson kapitali va hududiy rivojlanishga xizmat qilsa, bunday budjet siyosati iqtisodiy adolatni ta'minlovchi mexanizmga aylanadi (2-jadval).

2-jadval. Budjet adolatining asosiy mezonlari²

Mezon	Mazmuni	Baholash yo'nalishi
Ijtimoiy yo'naltirilganlik	Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlikka ustuvorlik berish	Ijtimoiy xarajatlar ulushi va inson kapitaliga ta'siri
Natijadorlik	Budjet mablag'lari aniq ijtimoiy-iqtisodiy natija berishi	"Xarajat — natija — ijtimoiy samara" bog'liqligi
Manzillilik	Yordam haqiqatan ehtiyojmand qatlamlarga yetib borishi	Ijtimoiy transfertlar qamrovi va aniqligi
Shaffoflik	Budjet ma'lumotlari ochiq va tushunarli bo'lishi	Ochiq budjet, jamoatchilik nazorati
Hududiy mutanosiblik	Hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini qisqartirish	Budjetlararo transfertlar va infratuzilma xarajatlari
Inklyuzivlik	Ayollar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va kam ta'minlanganlar manfaatini hisobga olish	Gender va ijtimoiy ta'sir tahlili
Avlodlararo barqarorlik	Davlat qarzi va taqchillik kelajak avlodlarga ortiqcha yuk bo'lmasligi	Fiskal barqarorlik va qarz yuki

O'zbekiston amaliyotida budjet xarajatlarning sezilarli qismi ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgani budjet siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va aholini qo'llab-quvvatlash dasturlari iqtisodiy adolatni ta'minlashda asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq keyingi bosqichda asosiy e'tibor xarajatlar hajmini oshirishdan ko'ra, ularning natijadorligi va manzilliligini kuchaytirishga qaratilishi lozim.

Tadqiqot natijalari soliq va budjet adolatini kompleks baholash uchun maxsus integral yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Shu maqsadda Soliq-budjet adolati integral indeksi (SBAI)ni qo'llash taklif etiladi (3-jadval).

1 Manba: muallif ishlanmasi.

2 Manba: muallif ishlanmasi.

3-jadval. Soliq-budjet adolati integral indeksi (SBAI) tarkibi³

Subindeks	Belgisi	Asosiy indikatorlar
Soliq yuki adolatligi	SA	Soliq yuki, to'g'ri va egri soliqlar nisbati, samarali soliq stavkalari
Soliq tizimi shaffofligi	SSh	Soliq qoidolari barqarorligi, raqamlashuv, hisobot soddaligi
Budjet xarajatlari samaradorligi	BS	Davlat dasturlari natijadorligi, ijtimoiy samara, xarajat–natija bog'liqligi
Ijtimoiy himoya manzilligi	IH	Transfertlar qamrovi, ehtiyojmandlarga yetib borish darajasi
Hududiy budjet adolati	HBA	Aholi jon boshiga xarajatlari, infratuzilma, transfertlar samaradorligi
Gender va ijtimoiy inklyuzivlik	GI	Ayollar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslar va kam ta'minlanganlar qamrovi
Avlodlararo fiskal barqarorlik	AFB	Budjet taqchilligi, davlat qarzi, qarz mablag'larining samaradorligi

Ushbu model soliq-budjet siyosatini faqat fiskal barqarorlik nuqtayi nazaridan emas, balki adolat, manzillilik, hududiy mutanosiblik va ijtimoiy natijadorlik nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi. Indeks O'zbekiston sharoitida dastlab ekspert baholash va hududiy aprobatsiya asosida qo'llanilishi, keyinchalik esa soliq-budjet siyosatini tahlil qilishning qo'shimcha instrumenti sifatida takomillashtirilishi mumkin.

Tahlillar asosida soliq-budjet adolatini ta'minlash bo'yicha bir nechta muhim natijalarni ajratish mumkin.

Birinchidan, adolatli soliq tizimi faqat soliq yukini kamaytirish emas, balki uni iqtisodiy subyektlar o'rtasida oqilona va mutanosib taqsimlashni anglatadi. Shu sababli soliq islohotlarini baholashda soliq tushumlari o'sishi bilan bir qatorda soliq yukining aholi va biznes guruhlariga o'rtasidagi taqsimoti ham tahlil qilinishi lozim.

Ikkinchidan, budjet adolati budjet xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi bilan birga ularning natijadorligini ham talab qiladi. Ya'ni budjet mablag'lari faqat ajratilishi emas, balki aholi farovonligi, kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va tibbiy xizmatlar sifati, bandlik hamda hududiy rivojlanishga real ta'siri orqali baholanishi kerak.

Uchinchidan, soliq imtiyozlari va budjet subsidiyalari iqtisodiy adolat mezonlariga muvofiq baholanishi zarur. Agar imtiyoz yoki subsidiya aniq iqtisodiy va ijtimoiy natija bermasa, u adolatli raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli soliq imtiyozlarini "adolat auditi"dan o'tkazish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, hududiy budjet adolati alohida ahamiyatga ega. Hududlar o'rtasidagi soliq bazasi, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sifatining farqliligi budjetlararo munosabatlarda adolat mezonlarini kuchaytirishni talab etadi. Bunda transfertlar faqat xarajatlarni qoplash emas, balki hududlar o'rtasida imkoniyatlar tengligini ta'minlash mexanizmi sifatida qoralishi lozim.

Beshinchidan, raqamlashtirish soliq-budjet adolatini kuchaytirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Elektron soliq ma'muriyatchiligi, ochiq budjet portallari, tashabbusli budjetlashtirish, davlat xaridlari shaffofligi va raqamli ijtimoiy reyestrlar soliq to'lovchi, davlat va fuqarolar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, raqamli tizimlarda algoritmlar xolisligi, ma'lumotlar sifati va shikoyat qilish imkoniyati ta'minlanishi zarur.

Oltinchidan, soliq-budjet siyosatining adolatligi avlodlararo fiskal barqarorlik bilan ham bog'liq. Budjet taqchilligi va davlat qarzi kelajak avlodlar zimmasiga ortiqcha yuk bo'lib tushmasligi kerak. Shuning uchun qarz mablag'lari asosan uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy samara beradigan sohalar – ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma, energetika, suv ta'minoti va raqamli rivojlanishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

Shu tariqa, soliq-budjet adolatini quyidagi konseptual bog'liqlik orqali ifodalash mumkin:

Soliq-budjet adolati = soliq yuki adolati + soliq shaffofligi + budjet samaradorligi + ijtimoiy himoya manzilligi + hududiy mutanosiblik + inklyuzivlik + avlodlararo barqarorlik.

Mazkur yondashuv soliq-budjet siyosatini davlat moliyasining texnik instrumenti sifatida emas, balki iqtisodiy o'sish, ijtimoiy himoya, inson kapitali, hududiy taraqqiyot va fiskal barqarorlikni bog'lovchi adolatli institutsional mexanizm sifatida baholash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy adolat faqat bozor mexanizmlarining o'z-o'zidan amal qilishi natijasi emas, balki davlatning qayta taqsimlash, ijtimoiy himoya, institutsional tartibga solish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash funksiyalari bilan bevosita bog'liq jarayondir. Shu sababli davlatning iqtisodiy adolatni ta'minlashdagi roli bozorni cheklashda emas, balki bozor natijalarining ijtimoiy maqbulligi, shaffofligi va manzilliligini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

3 Manba: muallif ishlanmasi.



Ikkinchidan, soliq adolati soliq stavkalari yoki soliq tushumlari miqdori bilan cheklanmaydi. U soliq yukining iqtisodiy subyektlar, daromad guruhlari, tarmoqlar va hududlar o'rtasida qanday taqsimlangani, soliq qoidalarining barqarorligi, imtiyozlarning asoslanganligi va soliq ma'muriyatchiligining shaffofligi bilan belgilanadi.

Uchinchidan, budget adolati budget xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligi, natijadorligi, manzilliligi, hududiy mutanosibligi, inklyuzivligi va avlodlararo fiskal barqarorligi orqali namoyon bo'ladi. Budget xarajatlarining ortishi o'z-o'zidan adolatni ta'minlamaydi; asosiy mezon ushbu mablag'larning aholi farovonligi, inson kapitali, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy xizmatlar sifati va hududiy rivojlanishga ta'siri bilan belgilanadi.

To'rtinchidan, soliq va budget adolatini alohida-alohida emas, balki yagona qayta taqsimlash tizimining o'zaro bog'liq ikki tarkibiy qismi sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq. Adolatli soliq tizimi budget resurslarining adolatsiz taqsimlanishini oqlay olmaganidek, ijtimoiy yo'naltirilgan budget siyosati ham nomutanosib yoki iqtisodiy faollikni susaytiruvchi soliq tizimini to'liq kompensatsiya qila olmaydi.

Beshinchidan, O'zbekistonda soliq-budget islohotlarining keyingi bosqichida asosiy vazifa faqat soliq stavkalarini pasaytirish yoki budget xarajatlarini oshirishdan iborat bo'lmashligi lozim. Asosiy e'tibor soliq yukining adolatli taqsimlanishi, budget dasturlarining natijadorligi, ijtimoiy yordamning manzilliligi, hududiy budget adolati va davlat moliyasining shaffofligini kuchaytirishga qaratilishi zarur.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Soliq-budget siyosatini adolat mezonlari asosida baholash amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda soliq tushumlari, budget xarajatlari va taqchillik bilan bir qatorda soliq yuki taqsimoti, budget xarajatlarining ijtimoiy samarasi va hududlar kesimidagi ta'siri ham baholanishi lozim.

Soliq imtiyozlarini "adolat auditi"dan o'tkazish mexanizmini joriy etish zarur. Har bir soliq imtiyozi uning budget daromadlariga ta'siri, raqobat muhitiga ta'siri, ijtimoiy-iqtisodiy natijasi va jamiyat uchun qay darajada manfaat keltirayotgani nuqtayi nazaridan muntazam baholanishi kerak.

Budget dasturlari uchun "Adolatli budget" mezonlarini ishlab chiqish taklif etiladi. Ushbu mezonlar budget xarajatlarining manzilliligi, natijadorligi, shaffofligi, ijtimoiy ta'siri, hududiy mutanosibligi, gender va ijtimoiy inklyuzivligi hamda avlodlararo barqarorligini qamrab olishi lozim.

Hududiy budget adolatini kuchaytirish uchun fiskal tenglashtirish mezonlarini takomillashtirish zarur. Budgetlararo transfertlar hududlarning aholi soni, soliq salohiyati, kambag'allik darajasi, infratuzilma holati va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqsimlanishi maqsadga muvofiq.

"Tashabbusli budget" jarayonlarida ijtimoiy ehtiyoj koeffitsiyentini qo'llash taklif etiladi. Bu faqat ovozlar sonini emas, balki hududning ijtimoiy ehtiyoji, infratuzilma muammolari, aholi zichligi va kam ta'minlangan qatlamlar ulushini ham hisobga olish imkonini beradi.

Shunday qilib, soliq-budget adolatini ta'minlash iqtisodiy o'sish, ijtimoiy himoya, inson kapitalini rivojlantirish, hududiy mutanosiblik va fiskal barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan kompleks institutsional jarayondir. Davlatning soliq-budget siyosati ana shu muvozanatni ta'minlagan taqdirdagina ijtimoiy-iqtisodiy adolatni amalga oshirishning ta'sirchan mexanizmiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — М.: Эксмо, 2007. — 960 с.
2. Пигу А. Экономическая теория благосостояния. В двух томах. Москва, «Экономика», 1984/85.
3. Дж.М.Кейнс. Общая теория занятости, процента и денег. Москва, Издательство "Прогресс", 1978.
4. Альфред Маршалл. Основы экономической науки. Москва, Издательство "Эксмо", 2007.
5. Ролз Дж. Теория справедливости. — М.: Новое издательство, 2020. — 536 с.
6. Сен А. Развитие как свобода. — М.: Логос, 2017. — 416 с.
7. Musgrave, R.A. (1959). The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. New York: McGraw-Hill. / Musgrave, R.A., & Musgrave, P.B. (1989). Public Finance in Theory and Practice. 5th ed. New York: McGraw-Hill.
8. Stiglitz, J.E., & Rosengard, J.K. (2015). Economics of the Public Sector. 4th ed. New York: W.W. Norton & Company.
9. Piketty, T. (2014). Capital in the Twenty-First Century. Cambridge, MA: Harvard University Press. DOI: 10.4159/9780674369542.
10. Atkinson, A.B. (2015). Inequality: What Can Be Done? Cambridge, MA: Harvard University Press. DOI: 10.4159/9780674287013.
11. OECD. (2025). Taxing Wages 2025. Paris: OECD Publishing. DOI: 10.1787/b3a95829-en.
12. International Monetary Fund. (2025). Fiscal Monitor: Fiscal Policy under Uncertainty. Washington, DC: International Monetary Fund.



13. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (Yangi tahrirda) // URL: <https://lex.uz/docs/-4674902>
14. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1105-sonli Qonuni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7949060>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>